



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

TOBE BOG‘LANISH: SO‘Z BIRIKMASI VA GAP BO‘LAKLARI TAHLILI (Ona tili darsligidagi qoidalar izohi: ilmiy-amaliy va metodik yondashuv)

Feruza JUMAYEVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada tobe bog‘lanishlarning grammatik asoslarini o‘rganishda metodik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Tobe va hokim qismlar o‘rtasidagi grammatik munosabatlarni belgilovchi vositalar – kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar hamda so‘z tartibining semantik-funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Grammatik birliklarning shakliy, mazmuniy va strukturaviy xususiyatlari qiyosiy jihatdan o‘rganilgan. Semantik tahlil orqali so‘zlar o‘rtasidagi ma‘no-munosabatlar, sintaktik tahlil yordamida ularning gapdagi joylashuvi, vazifasi aniqlangan. Mazkur maqola ona tili darsligidagi sintaksisga oid qoidalarni izohlash va tahlil etishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar, talabalar hamda tadqiqotchilar uchun nazariy bilimlarni amaliy tahlil bilan bog‘lashda metodik yordamchi manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: tobe so‘z, hokim so‘z, boshqaruv, bitishuv, moslashuv, mustaqil ega, nomustaqil ega, mustaqil kesim, nomustaqil kesim, kelishik, ko‘makchi, ko‘p ma‘nolilik.

Dependent Relationship: Analysis of Phrases and Sentence Parts

(Explanation of rules in the native language textbook: a scientific-practical and methodological approach)

Abstract

This article highlights the importance of a methodological approach in studying the grammatical foundations of dependent relations. The tools that determine the grammatical relationships between the dependent and governing parts – case suffixes, auxiliaries, and the semantic-functional characteristics of word order – are analyzed. The formal, semantic, and structural features of grammatical units are comparatively examined. Through semantic analysis, the meaning relations between words are identified, while syntactic analysis clarifies their position in the sentence and their syntactic function. This article aims to explain and analyze the syntax rules found in native language textbooks and can serve as a methodological guide that connects theoretical knowledge with practical analysis for students, learners, and researchers.

Keywords: dependent word, governing word, government, agreement, concord, independent subject, dependent subject, independent predicate, dependent predicate, case, auxiliary, polysemy.

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent. Jizzax davlat pedagogika universiteti, jumayevaferuza@mail.ru

Soʻz birikmalari hokim soʻzning qaysi soʻz turkumiga mansubligiga qarab ikkita asosiy guruhga ajratiladi: otli soʻz birikmalari va feʼlli soʻz birikmalari. Otli soʻz birikmalarida hokim soʻz odatda ot, shuningdek, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlid soʻzlar hamda otlashgan soʻzlardan iborat boʻladi.

Tobe soʻz	Hokim soʻz	Hokim soʻzning qaysi soʻz turkumiga mansubligi
<i>Kitobning</i>	<i>varagʻi</i>	ot
<i>Hammasidan</i>	<i>katta</i>	sifat
<i>Oʻquvchilarning</i>	<i>beshtasi</i>	son (otlashgan soʻz)
<i>Bolalarning</i>	<i>hammasi</i>	olmosh
<i>Hammasidan</i>	<i>tez</i>	ravish
<i>Bemorning</i>	<i>dod-voyi</i>	undov (otlashgan soʻz)
<i>Chumchuqning</i>	<i>chugʻur-chugʻuri</i>	taqlid (otlashgan soʻz)

Feʼlli soʻz birikmasida esa hokim soʻz, odatda, feʼlning harakat nomi, sifatdosh yoki ravishdosh shakllarida boʻladi. Bunday birikmalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin: *kitobni oʻqimoq, vazifani bajarish, yaxshi anglamaslik, kitobni oʻqiyotgan, kitobni oʻqib* va boshqalar. Bunday birikmalarning hokim qismi gapda kesim (mustaqil yoki nomustaqil), ega, toʻldiruvchi, hol yoki aniqlovchi vazifasida keladi. M.: *Vazifamiz – kitob oʻqish*. Bu gapda *oʻqish* feʼli mustaqil kesim vazifasida qoʻllangan hamda ega va toʻldiruvchini boshqarib kelgan. *Kitob oʻqish – vazifamiz* gapida esa *oʻqish* soʻzi ega vazifasida qoʻllangan. Agar harakat nomi, sifatdosh yoki ravishdosh nomustaqil kesim vazifasida boʻlsa va egani boshqarib kelsa, bunday hollarda soʻz birikmasi hosil boʻlmaydi. M.: *Bahor kelib, gullar ochildi*. Berilgan gapda *kelib* ravishdosh shakli gapda nomustaqil kesim vazifasida boʻlib, nomustaqil ega (*bahor* soʻzi)ni boshqarib kelgan. Gapda *bahor* soʻzi egaga xos tarzda bosh kelishik shaklida qoʻllangan va shaxs-son maʼnosini bildirgan, ammo kesimda shu maʼnoga mos boʻlgan shaxs-son qoʻshimchasi yoki maʼnosi mavjud emas. *Bahor kelib* jumlasini nisbiy tugallangan fikrni bildiradi va harakat-holatning oʻtgan zamonda roʻy berganlini anglatadi, ammo *kelib* feʼli tarkibida kesimlik shakllari mavjud emas, shu bois *Bahor kelib* jumlasini gapdan tashqarida mustaqil holda qoʻllanilmaydi. Bunday birikmalar gapda bir butun holda baʼzan hol vazifasida keladi. M.: *Bahor kelib, gullar ochildi* (*kelib* – ravishdosh, *bahor kelib* – hol); *Bahor kelgani uchun gullar ochildi* (*kelgani* – sifatdosh, *bahor kelgani uchun* – hol); *Bahor kelishi bilan gullar ochildi* (*kelishi* – harakat nomi, *bahor kelishi bilan* – hol). Bu gaplarda *bahor* soʻzi nomustaqil ega vazifasida boʻlgani uchun *bahor kelib, bahor kelgani uchun, bahor kelishi bilan* kabi moslashuvli bogʻlanishlar soʻz birikmasini hosil qilmaydi.

Shu bois *Bahor kelib, gullar ochildi* gapida soʻz birikmalari mavjud emas, ega va kesim bogʻlanishlari bor.

Nomustaqil ega	Nomustaqil kesim	Mustaqil ega	Mustaqil kesim
<i>Bahor</i>	<i>kelib,</i>	<i>gullar</i>	<i>ochildi</i>

Nomustaqil ega va kesim gapda bir-biridan ajratib tahlil etilmaydi. Nomustaqil kesim mustaqil kesimga tobelanadi. Nomustaqil ega va kesim birgalikda ikkinchi darajali boʻlakni hosil qiladi va bu gap boʻlagi mustaqil kesimga tobelanadi. Shu sabab *Bahor kelib, gullar ochildi* gapi sodda gap hisoblanadi.

Nomustaqi ega	Nomustaqil kesim	Mustaqil ega	Mustaqil kesim
<i>Bahor</i>	<i>kelib,</i>	<i>gullar</i>	<i>ochildi</i>
Hol		Ega	Kesim

Soʻz borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatni nomlovchi mustaqil til birligidir. *Olma* soʻzi aytilganda meva tasavvurga keladi. Olma har xil belgi-xususiyatlarga ega boʻlib, uning qizil, oq, koʻk rangli; shirin nordon taʼmli turlari mavjud. Shu bois olmalardan biriga yoki bir turiga ishora qilinganda, ulardan birini ajratib, aniqlashtirib koʻrsatish ehtiyoji tugʻilganda *qanday olma?* yoki *qaysi olma?* kabi savollar beriladi. Natijada *qizil olma, shirin olma* kabi soʻz birikmalari hosil boʻladi. Soʻz birikmalari ikki qismdan iborat boʻladi: tobe va hokim qism. Savol qoʻshilgan qism hokim qism, savolga javob boʻlgan qism esa tobe qism deyiladi.

Tobe soʻz	Hokim soʻz
<i>Qanday</i> →	<i>olma?</i>
<i>Qizil</i>	<i>olma</i>

Bir soʻz yoki soʻz birikmasi boshqa bir soʻz yoki birikmaga ergashib, uning maʼnosini izohlab, toʻldirib yoki aniqlashtirib kelganda, ular oʻrtasida tobe bogʻlanish yuzaga keladi. Tobe bogʻlanishlar natijasida til birliklari oʻzaro grammatik va maʼno jihatdan bogʻlanib, soʻz birikmasi yoki gapni hosil qiladi. Tobe qism hokim qismga kelishik qoʻshimchasi, koʻmakchi yoki tobelik ohangi (soʻz tartibi) yordamida birikadi. Hokim qism tarkibida esa koʻpincha egalik qoʻshimchalari yoki kesimlik shakllari boʻladi. Agar hokim qismda kesimlik shakllari mavjud boʻlsa, bunday tobe-hokim bogʻlanish gapni hosil qiladi. Aksincha, agar hokim qismda kesimlik shakllari boʻlmasa, bu birlik soʻz birikmasi deb ataladi. M., *non pishirmoq* bogʻlanishi soʻz birikmasi boʻlib, hokim qismda feʼning kesimlik shakli mavjud emas. *Non pishirdim* bogʻlanishi esa gapni hosil qilgan, chunki hokim qismda kesimlik shakllari (-di zamon hamda -m shaxs-son qoʻshimchalari) mavjud. Tobe va hokim qismlarning

o‘zaro qanday grammatik vositalar yordamida bog‘langaniga qarab, so‘z birikmalari bitishuv, boshqaruv, moslashuv kabi turlariga ajratiladi. Tobe so‘zning faqat tobelik ohangi (kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilarsiz) orqali hokim so‘zga bevosita bog‘lanishiga bitishuv deyiladi.

Tobe so‘z	Ohang va ma‘no	Hokim so‘z
<i>Ishchan</i>	0 shakl (tobelik ohangi)	<i>odam</i>
<i>Tez</i>	0 shakl (tobelik ohangi)	<i>termoq</i>

Bitishuvli so‘z birikmalarida so‘zlar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish ham muhim ahamiyat ega bo‘ladi. Ya‘ni, tobe va hokim so‘zlar bir-biriga grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘langan bo‘lsa-da, ularning ma‘nolari orasida mantiqiy ziddlik, nomuvofiqlik bo‘lmasligi kerak. Masalan: *issiq muz* birikmasi grammatik jihatdan bitishuv bo‘lsa-da, mantiqiy jihatdan nomuvofiq bog‘langan, chunki “muz” – sovuq holatdagi modda, “issiq” esa unga zid bo‘lgan sifatdir. Tobe so‘zning hokim so‘zga kelishik qo‘shimchalari (tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari) hamda ko‘makchilar yordamida bog‘lanishiga boshqaruv deyiladi.

Tobe so‘z	Kelishik yoki ko‘makchilar	Hokim so‘z
<i>Do‘stlar</i>	<i>ni</i>	<i>hurmat qilmoq</i>
<i>Yoshlar</i>	<i>ga</i>	<i>g‘amxo‘rlik qilmoq</i>
<i>Uy</i>	<i>da</i>	<i>o‘tirmoq</i>
<i>Uy</i>	<i>dan</i>	<i>chiqmoq</i>
<i>G‘alaba</i>	<i>uchun</i>	<i>kurashmoq</i>

Kelishik qo‘shimchalari o‘zgargan holda: *qishloqqa bormoq*; qisqargan holda: *onama aytdim* (onamga aytdim) belgisi qo‘llaniladi. Ba‘zan belgisiz qo‘llaniladi: *non yemoq*. Shu holda ham bunday birikmalar boshqaruv hisoblanadi. Agar kelishik qo‘shimchalari so‘z birikmasi tarkibida tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash vazifasini bajarmasa, ular tobe so‘z tarkibidan alohida morfema sifatida ajratib tahlil etilmaydi. Bunday holatlarda ushbu qo‘shimchalar o‘zining mustaqil grammatik ma‘nosi va vazifasini yo‘qotgan, o‘zak tarkibiga birikib ajralmas holga kelgan hamda yangi leksik ma‘noli so‘zning hosil bo‘lishida ishtirok etgan bo‘ladi. M., *birga bormoq*, *birdan kulib yubormoq* kabi birikmalarda tobe so‘zlar (*birga*, *birdan*) shaklan kelishik qo‘shimchalarini olgan bo‘lsa-da, bu qo‘shimchalar tobe so‘zda grammatik bog‘lovchi vosita sifatida emas, balki so‘zning ajralmas qismi sifatida o‘rinlashgan. Shu sababli, bunday birikmalar bitishuvli so‘z birikmalari sifatida tahlil qilinadi va tobe qism tarkibidagi kelishik qo‘shimchalari alohida morfema sifatida ajratilmaydi. Kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar ko‘p ma‘nolilik xususiyatiga ega bo‘lib, ular tobe so‘zning ma‘nosiga muvofiq tarzda yangi ma‘no hosil qiladi hamda tobe

soʻzni hokim soʻzga bogʻlash vazifasini bajaradi. Masalan, *oʻqishga bormoq* birikmasida oʻrin-joy va maqsad maʼnolari anglashiladi. Shuningdek, *bilan* koʻmakchisi “vosita” (*qalam bilan chizmoq*), “holat” (*zavq bilan kuylamoq*), “miqdor” (*qopi bilan olmoq*), “payt” (*yozi bilan ishlamoq*), “sabab” (*bayram bilan tabriklamoq*) kabi maʼnolarni ifoda etadi. Tobe soʻzda kelishik va koʻmakchilarning ketma-ket kelishi kuzatiladi.

Tobe soʻz	Kelishik va koʻmakchilar	Hokim soʻz
<i>Sharoit</i>	<i>ga koʻra</i>	<i>yondashmoq</i>
<i>Shu(n)→</i>	<i>dan beri</i>	<i>ishlamoq</i>
<i>Mehnati</i>	<i>ga yarasha</i>	<i>toʻlamoq</i>

Baʼzan kelishik qoʻshimchalari belgisiz qoʻllanadi: *uy qurmoq* (*uyni qurmoq*). Bunday birikmalar ham boshqaruvli soʻz birikmalari sifatida tahlil etiladi. Bosh kelishik shaklidagi soʻzlar noaniqlik maʼnosini, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigidagi soʻzlar esa aniqlik maʼnosini ifoda etadi. Shu bois odatda bosh kelishikdagi soʻzlar majhul nisbatdagi feʼllarga, boshqalari esa aniq nisbatdagi feʼllarga bogʻlanadi. M.: *uy qurildi* (*uy* – bosh kelishik shaklida, *qurildi* – majhul nisbatda); *uyni qurdi*, *uyga bordi*, *uyda oʻtiribdi*, *uydan keldi* (*qurdi*, *bordi*, *oʻtiribdi*, *keldi* feʼllari aniq nisbatda). Kelishik qoʻshimchalari belgisiz qoʻllanganda soʻzlar bosh kelishikdagi soʻzlar kabi “noaniqlik” maʼnosini bildirishga oʻtadi. M., *Uyni qurdi* jumlasida soʻzlovchi va tinglovchi uchun maʼlum boʻlgan uy haqida gap boryapti, *Uy qurdi* jumlasida esa *uy* soʻzi tushum kelishigida boʻlib, kelishik qoʻshimchasi belgisiz qoʻllangan, shu bois bosh kelishikdagi soʻzlar kabi “noaniqlik” maʼnosini bildiradi. *Uyni qurdi* gapida har ikki boʻlak “aniqlik” maʼnosiga ega boʻlgani uchun *uyni* boʻlagi (toʻldiruvchi)ga aniqlovchining soʻrogʻini berish mumkin: *Qaysi uyni qurdi?* *Qayerdagi uyni qurdi?* *Uy qurdi* gapida esa *uy* qismi “noaniqlik”, *qurdi* qismi “aniqlik” maʼnosiga ega, shu bois gapdagi *uy* boʻlagi(toʻldiruvchi)ga aniqlovchining soʻrogʻini berib boʻlmaydi, yaʼni *Qaysi uy qurdi?*, *Qayerdagi uy qurdi?* deb savol berib boʻlmaydi. *Mana shu uyni qurdi* gapi tuzilganda koʻrsatilgan ishora qilingan *uy* haqida gap boradi “aniqlik” maʼnosi ifodalanadi. *Mana shu uy qurdi* deb gap tuzib boʻlmaydi, chunki *mana shu* va *qurdi* boʻlaklari “aniqlik” maʼnosiga ega boʻlsa-da, *uy* soʻzida tushum kelishigi qoʻshimchasi belgisiz qoʻllangani bois bosh kelishikka xos “noaniqlik” maʼnosi yuzaga keladi. *Mana shu uy qurdi* jumlasida gap boʻlaklari orasida “aniqlik”(*mana shu*, *qurdi boʻlaklarida*) va “noaniqlik” (*uy boʻlagida*) maʼnosiga koʻra yuzaga keladigan qarama-qarshilik gap mazmunida mantiqsizlikni yuzaga keltiradi.

Xullas, bosh kelishikdagi soʻzlar “noaniqlik” maʼnosini bildiradi, tushum, joʻnalish oʻrin-payt, chiqish kelishigidagi soʻzlar “aniqlik” maʼnosini bildiradi, shu

bois kelishik qo'shimchalari belgisiz qo'llanganda so'zlar tuzilishiga ko'ra bosh kelishik shakliga ko'chadi va "noaniqlik" ma'nosini bildirishga o'tadi va shu tarzda uslubiy ma'no yaraladi. *Uyni qurdi* gapida *uyni* bo'lagi orqali (tushum kelishigi belgili) "aniq bir obyekt" ma'nosi anglashiladi va bu ma'no grammatik ma'no deb tahlil etiladi, *Uy qurdi* gapida *uy* so'zi tushum kelishigida bo'lib, kelishik qo'shimchasi belgisiz qo'llangan. Bunga asos sifatida aytish mumkinki, *qurdi* fe'li aniq nisbatda bo'lgani bois *uy* so'zi tushum kelishigida bo'ladi. Ammo *uy* so'zi (kelishik qo'shimchasi belgisiz qo'llangani bois) tuzilish jihatidan bosh kelishik shakliga ko'chgan, shu sabab "noaniqlik" ma'nosini hosil qilgan va bu ma'no uslubiy ma'no deb qaraladi. Xullas, kelishik shakllari so'zda belgili qo'llanganda "aniqlik" grammatik ma'nosi, belgisiz qo'llanganda esa "noaniqlik" uslubiy ma'nosi hosil bo'ladi. Shuningdek, ko'makchilar ham kelishiklardan farqli tarzda "noaniqlik" ma'nosini bildiradi. M.: *uyga ketdi* (aniq manzil); *uy tomon ketdi* ("noaniqlik" ma'nosi). Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'zlar "noaniqlik" ma'nosi bilan birga "shaxs-son" ma'nosini ham bildiradi va shu ma'nolariga ko'ra kesim bilan semantik moslashadi. *Uy qurildi* gapida *uy* so'zi bosh kelishik shaklida bo'lib, "noaniqlik" ma'nosiga ega, kesimda ham unga mos tarzda majhul nisbat qo'shimchasi mavjud.

Shuningdek, ega "III shaxs, birlik" ma'nosini bildirgan, shunga mos tarzda kesim *-di* "III shaxs, birlik" ma'nosini birdiruvchi qo'shimchani olgan. *Uy qurildi* gapi ega va kesimning moslashuvli bog'lanishiga misol bo'ladi. Uni *uyning qurilishi* shaklidagi (qaratqich va qaralmish) moslashuvli bog'lanishga aylantirganda *uy* so'zi qaratqich kelishigi qo'shimchasini olsa-da, "noaniqlik va III shaxs, birlik" ma'nosini bildiradi va shu ma'nolari bilan qaralmishdagi majhul nisbat va egalik qo'shimchalari ifoda etgan ma'nolarga moslashadi. Tobe so'zning qaratqich kelishigi, hokim so'zning esa egalik qo'shimchasini olib bog'lanishi moslashuv deyiladi.

Tobe so'z	Qaratqich kelishigi	Hokim so'z	Egalik qo'shimchasi
Gul	ning	barg	i

Tobe qismda ham, hokim qismda ham bog'lovchi vositalar bo'lgani bois bunday moslashuvli birikma "ikki tomonlama bog'lanish" deb ham yuritiladi. Bog'lovchi vosita sifatida tobe qismda qaratqich kelishigi, hokim qismda esa egalik qo'shimchasi bo'ladi: **gulning bargi**. Moslashuvli birikmalarda bir tomonlama bog'lanish ham mavjud bo'lib, bunda tobe qism bosh kelishikda bo'lib, hokim qismda esa egalik qo'shimchalari bo'ladi: *o'qish kitobi*, *musiqqa darsi*. Ega va kesimning bog'lanishi ham grammatik shakllarni olib o'zgarishiga ko'ra bir tomonlama moslashuvli bog'lanish bo'lib, ega bosh kelishikda bo'ladi, kesim tarkibida esa zamon, shaxs-son qo'shimchalari bo'ladi: *Men o'qidim*. Bu gap

mustaqil ega va mustaqil kesim bog‘lanishidan tashkil topgan. Nomustaqil ega va kesimlarning bog‘lanishida esa tobe va hokim qismda bog‘lovchi vosita(grammatik shakl)lar bo‘lmaydi. *Bahor kelib, gullar ochildi* gapining birinchi qismi (*bahor kelib*)da nomustaqil ega va nomustaqil kesim bog‘lanishi mavjud bo‘lib, ularni shaxs-sonda mosligini ifoda etuvchi grammatik ma’no anglashilib tursa-da, uni ifoda etuvchi grammatik shakl(shaxs-son shakllari)lar tobe qismda ham, hokim qismda ham mavjud emas.

Ushbu moslashuvli bog‘lanishda *bahor* so‘zi bosh kelishikda kelgani bois ega vazifasida bo‘lib, “III shaxs, birlik” ma’nosini bildiradi va shu ma’nosi asosida *kelib* so‘ziga tobelanadi, uni nomustaqil kesim vazifasiga xoslaydi. Moslashuvli so‘z birikmasi (ikki tomonlama bog‘lanish)larda qaratqich kelishigi belgisiz: *gul bargi* (*gulning bargi*); egalik qo‘shimchasi belgisiz: *bizning maktab* (*bizning maktabimiz*); qaratqich kelishigi ham, egalik qo‘shimchasi ham belgisiz: *o‘rik danak* (*o‘rikning danagi*) tarzda qo‘llaniladi. Ba‘zan kelishik qo‘shimchalari qisqargan holda: *gulin bargi* (*guli(ning) bargi*); o‘zgargan holda: *manim vatanim* (*maning vatanim*) belgisi qo‘llaniladi. Bunday birikmalarda tobe so‘z hokim so‘zning egalik qo‘shimchasi bilan shaxs-sonda ma’no jihatdan mos bo‘ladi. ***Mening kitobim*** birikmasida tobe qismdagi *men* so‘zi bilan hokim qismdagi *-im* egalik qo‘shimchasi shaxs-sonda mos: har ikkalasi “I shaxs, birlik”da qo‘llangan. ***Sening kitobing, uning kitobi*** kabi misollarda ham shunday ma’no muvofiqligi kuzatiladi. Ega va kesim bog‘lanishida ham shunday moslashuv mavjud: ***Men o‘qidim. Sen o‘qiding.*** Moslashuvli bog‘lanish asosida moslashuvli so‘z birikmasi yoki ega va kesimning shaxs-sonda moslashuvli bog‘lanishi hosil bo‘ladi.

Moslashuvli bog‘lanish	
Moslashuvli so‘z birikmasi	Ega va kesimning shaxs-sonda moslashuvi
Qaratqich + qaralmish	Ega + kesim
<i>Shoirning she‘rlari</i>	<i>Men shoirman</i>

Moslashuvli bo‘lanish tobe qismning bosh yoki qaratqich kelishigida kelishiga ko‘ra farqlanadi. Tobe qism qaratqich kelishigida bo‘lsa, gapda qaratqich aniqllovchi vazifasida bo‘ladi. M., *Maktabning hovlisi katta* gapida *maktabning* bo‘lagi qaratqich aniqllovchi vazifasini bajargan. Tobe qism bosh kelishikda bo‘lsa, gapda ega vazifasida bo‘ladi. M., *uy qurildi* gapida *uy* bo‘lagi ega vazifasini bajargan. Shuningdek, *bahor fasli, Jizzax shahri* kabi birikmalar ham moslashuvli bog‘lanishga misol bo‘ladi va tobe qismi bosh kelishikdagi so‘zlardan iborat hisoblanadi. Bunday birikmalarda hokim qism “III shaxs, birlik”dagi egalik qo‘shimchalarini oladi. M., *bahor fasli* birikmasida bosh kelishikdagi *bahor* so‘zi “III shaxs, birlik” ma’nosini bildiradi va shu ma’nosi ko‘ra hokim qismdagi *-i* egalik qo‘shimchasining ma’nosi

bilan moslashadi. Bosh kelishikdagi soʻzlar *kim?*, *nima?*, *qayer?* soʻroqlariga javob boʻladi. Ot va otlashgan soʻzlar bosh kelishikda qoʻllaniladi va “shaxs-son” maʼnosiga ega boʻladi. Bosh kelishikdagi soʻzlar III shaxsda shaxs va shaxsdan tashqari barcha jonli va jonsiz narsa-hodisalarga ishora qiladi. M.: *U katta* – Kim katta? – *Akam katta*; Nima katta? – *Mashina katta*; Qayer katta? – *Hovli katta* va h.k.

Shaxs-son	Birlik	Koʻplik	Ishora qilingan narsa-hodisalar
I	<i>Men kattaman</i>	<i>Biz kattamiz</i>	Shaxslarga ishora
II	<i>Sen kattasan</i>	<i>Siz kattasiz</i>	Shaxslarga ishora
III	<i>U katta(dir)</i>	<i>Ular katta(dir)</i>	Shaxs va shaxsdan tashqari narsalarga ishora

Bahor fasli birikmasida *bahor* soʻzi ham bosh kelishik shaklida boʻlib, “III shaxs, birlik” maʼnosini bildiradi va shu maʼnosiga koʻra *fasli* soʻzidagi *-i* egalik qoʻshimchasining maʼnosiga moslashadi. Gap tarkibida bunday birikmalar bir-biridan ajratib alohida-alohida tahlil etilmaydi. M., *Yurtimizga bahor fasli keldi* gapida *yurtimizga* boʻlagi – hol, *bahor fasli* boʻlagi – ega, *keldi* boʻlagi – kesim vazifasida boʻladi.

Xullas, tobe bogʻlanishlarning grammatik asosini aniqlashda tobe va hokim qismlarning oʻzaro munosabatini tashkil etuvchi grammatik vositalarni oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda, ayniqsa, kelishik qoʻshimchalari, koʻmakchilar, shuningdek, soʻz tartibining semantik-funksional jihatlariga eʼtibor qaratiladi. Bundan tashqari, tobe va hokim qismlar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni chuqurroq tahlil etish uchun semantik, sintaktik tahlillarga tayanish zarur. Semantik tahlil tobe-hokim bogʻlanishlarning maʼnoviy munosabatlarini ochib berishga xizmat qilsa, sintaktik tahlil ularning gapdagi joylashuvi, vazifalarini aniqlashga yordam beradi. Bunday yondashuvlar tahlil jarayonining aniq, tizimli va ilmiy asoslangan boʻlishini taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. (2014). *Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar*. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I,II,III bosqich talabalari uchun darslik. Ilm ziyo. Toshkent.

Qodirov M., Neʼmatov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. (2010). *Ona tili: 8-sinf uchun darslik*. Choʻlpon. Toshkent.

Qodirov M., Neʼmatov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. (2019) *Ona tili: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfi uchun darslik*. Toʻrtinchi nashr. Choʻlpon. Toshkent.